

SPORT FAOLIYATI: FUTBOL

yoʻnalishiga topshirgan abituriyentlar diqqatiga

Hurmatli abituriyent!

1. Siz 2021-2022 oʻquv yilida Andijon davlat universitetining 5610500-sport faoliyati: futbol bakalavriat taʼlim yoʻnalishiga hujjat topshirdingiz, endi kasbiy (ijodiy) imtihonda sport faoliyati asosi boʻlgan futbol fanidan amaliy ish bajarib, oʻz jismoniy qobiliyatingizni namoyon etasiz. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonlari, qaysi guruhda ekanligingizni va qaysi kuni imtihonga kelishingiz haqidagi maʼlumotlarni universitetimizning <http://adu.uz> saytidan olishingiz mumkin.

2. Siz oʻzingiz bilan pandemiya holatini inobatga olgan holda, xavfsizligingizni taʼminlash maqsadida himoya vositasi – tibbiy niqob bilan kelishingiz soʻraladi. Abituriyentlar oʻzlari bilan shaxsini tasdiqlovchi pasporti va abituriyent ruxsatnomasi bilan kelishlari shart.

3. Kasbiy (ijodiy) imtihonga siz sport faoliyati: futbol boʻyicha sport kiyimingizni olib kelasiz.

4. **HURMATLI OTA-ONALAR** imtihonlarga farzandingiz bilan kelmasligingizni iltimos qilamiz. Bu birinchi navbatda pandemiya sharoitida oʻzingizning va boshqalarning salomatligi uchun kerak. Shu munosabat bilan ota-onalarga maxsus joylar va boshqa sharoitlar bu yil yaratilmagan. Siz farzandlaringizni kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonini toʻgʻridan-toʻgʻri <http://adu.uz> sayti orqali kuzatib borishingiz mumkin. Uyda qoling va karantin qoidalariga amal qiling.